

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN BOLALAR JISMONIY TARBIYASI VA SOG'LOM TURMUSH TARZI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Bolalar jismoniy tarbiyasi va sog'lom turmush tarzi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Bolalar jismoniy tarbiyasi va sog'lom turmush tarzi

1. Jismoniy tarbiya metodikasining umumiy tushunchalari;
2. Ilk yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlanishi;
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida asosiy harakat mashqlari;
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida umumiy rivojlantiruvchi mashqlar;
5. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida harakatli o'yinlar;
6. Jismoniy tarbiya ish shakllari;
7. MTTda sog'lomlashtiruvchi tadbirlar;
8. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlanishi.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
------------	-----------------------	---------------------	-------------------	---------------------

1	Jismoniy tarbiya metodikasining umumiy tushunchalari	Jismoniy tarbiya asosiy tushunchalari, jismoniy tarbiya metodikasini maqsad va vazifalari: sogʻlomlashtiruvchi, taʼlim beruvchi va tarbiyalovchi vazifalari, maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash vositalari, issiq iqlim sharoitida bolalar organizmini chiniqtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda madaniy-gigiyenik koʻnikma va odatlarni tarbiyalash haqida bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishi kerak.	20 %	8 ta
2	Ilk yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlanishi	Ilk yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishida jismoniy tarbiya mashqlarining ahamiyati, oʻziga hos xususiyatlari, ilk yoshli bolalar bilan oʻtkaziladigan chiniqtirish tadbirlari, jismoniy mashqlar va oʻyinlar, saflanish va qayta saflanish mashqlarini ahamiyati, safda turish mashqlarining turlarini bilishi.	7.5 %	3 ta
3	Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida asosiy harakat mashqlari.	Maktabgacha yoshdagi bolalar organizmini rivojlanishi va oʻsishida asosiy harakat mashqlarining ahamiyati, umumiy xarakteristika, asosiy harakat mashqlari turlari (yurish, yugurish, sakrash va emaklash, tirmashib chiqish mashqlarini, uloqtirish, ilib olish, muvozanat saqlash mashqlarini turlari va oʻrgatish uslublarini bilishi.	5 %	2 ta
4	Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida umumrivojlantiruvchi mashqlar	Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish jarayonida umumrivojlantirish mashqlarini ahamiyati, mashqlarni bajarishda buyumlardan foydalanish, umumrivojlantiruvchi mashqlarni bajarishda toʻgʻri nafas olishga oʻrgatish, turli yosh guruhlarida Umumrivojlantiruvchi mashqlar haqida bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishi kerak.	10 %	4 ta
5	Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida harakatli oʻyinlar	MTT da harakatli oʻyinlar va milliy harakatli oʻyinlarining tarbiyaviy ahamiyati, harakatli oʻyin turlari, turli yosh guruh bolalari bilan harakatli oʻyinni tashkil qilishni, sport elementi boʻlgan oʻyinlarni turlarini, turli yosh guruhlarida sport elementi oʻyinlarini va sport mashqlarini oʻtkazish boʻyicha bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishi kerak.	12.5 %	5 ta
6	Jismoniy tarbiya ish shakllari	MTTda jismoniy tarbiya ish shakllarini tashkil etish, jismoniy tarbiya mashgʻulotlarni tuzilishi va mazmuni, MTTning kun tartibida tutgan oʻrnini, kichik va oʻrta guruhlarida mashgʻulotni tuzilishi, mazmuni, katta va tayyorlov guruhlarida	15 %	6 ta

		jismoniy tarbiya mashg'ulot ishlanmasini tuzish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.		
7	MTTda sog'lomlashtiruvchi tadbirlar	Ertalabki badantarbiyaning ahamiyati, hamda ularning maktabgacha ta'lim muassasalarining kun tartibidagi o'rni, bolalarni aqliy zo'riqishni talab qiladigan mashg'ulotlar jarayonida jismoniy daqiqalarni o'tkazishni, jismoniy daqiqalarni ahamiyatini bilishi.	10 %	4 ta
8	Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlanishi	Davlat talablari bo'yicha turli yosh guruhlarida bolalarni jismoniy tarbiyalashda "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" sohasini tahlil qilishni, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya ishlarini rejalashtirish va uning turlarini, MTTning turli yosh guruhlarida rivojlanish xaritasini yuritish, MTTda jismoniy tarbiya ishlarini tashkil etish kerakli jihoz va inventarlar, jihozlarga qo'yilgan talablarni bilishi.	20 %	8 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	27.5 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	57.5 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	15 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 8 may PQ 4312 qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya" to'g'risidagi Qonuni. 2019 yil 16 dekabr.

4. O'zbekiston Respublikasining "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari". 2018 yil 18 iyundagi qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 391- son qarori.

6. M.X.Tadjiyeva; S.I.Xusanho'jayeva "Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash nazariyasi va metodikasi". Qo'llanma.– Moliya – iqtisod. 2014y

7. "Sog'lom avlod dasturi". Qo'llanma . – T,: 2000

8. M.X.Tadjiyeva; S.I.Xusanho'jayeva "Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash nazariyasi va metodikasi". Qo'llanma.– Moliya – iqtisod. 2017y

9. A.V. Keneman, D.V.Xuxlayeva "Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash nazariyasi va metodikasi".

10. T.Usmonxo‘jayev, F. Xo‘jayev “1001 o‘yin” –Toshkent Ibn Sino nomidagi nashriyot-1990.

11. M.K.Mahkamjonov. “Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi” Ma’ruza matni, qo‘llanma.- Toshkent-2000y.

12. Oxunjon safarov O‘zbek xalq bolalar o‘yinlari. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2013.

13. L.I.Penzullayeva “5-6 yoshli bolalar uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari. Toshkent “O‘qituvchi” 1992.

14. L.I.Penzullayeva “4-5 yoshli bolalar uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari. Moskva “Maorif” 1983.

15. L.I.Penzullayeva “3-4 yoshli bolalar uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari. Moskva “Maorif” 1983.

Internet manbaalari

16. www.ziynet.uz

17. www.ped-kopilka.ru

18. www.resobr.ru

19. www.maam.ru detskijSad;

20. www.tdpu.uz

21. www.referatlar.uz

22. www.jlmt.uz

23. “MTT hujjatlari va ko‘rgazmalari” Telegram kanali @bogchamfaxrim.